**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 11 900,4 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 11 405,6 mlrd. so‘mni (103,2 %), o‘rmon xo‘jaligi –324,9 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 169,9 mlrd. so‘mni (101,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.




**11 900,4** — **Navoiy viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01 — **11 405,6** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **324,9** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **169,9** — **Baliqchilik xo‘jaligi**

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2020- yilning yanvar-dekabr yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,9 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 2,7 % i – oʻrmon xoʻjaligi, 1,4 % i – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.soʻm)




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (3 643,0 mlrd. soʻm), Qiziltepa (2 311,1 mlrd. soʻm) va Navbahor (1 881,7 mlrd. soʻm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy (83,6 mlrd. soʻm), Zarafshon shahar (41,9 mlrd. soʻm)larini keltirib oʻtish mumkin.

Yuqori oʻsish sur’ati Tomdi tumani (108,7 %), Zarafshon shahri (105,7 %), Uchquduq (104,5 %), Navbahor tumanlarida (104,0 %), aksincha Nurota (103,0 %), Xatirchi (102,2 %) tumanlarida esa past sur’atlar kuzatildi.

# Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 11 346,4 mlrd. so'mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 4 055,6 mlrd. so'mni (103,3 %), chorvachilik mahsulotlari 7 290,8 mlrd. so'mni (102,9 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 76,7 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 19,9 % i – fermer xo‘jaliklariga, 3,4 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tumanlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (30,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahrida (93,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (44,6 %) qayd etildi.

# Dehqonchilik

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 055,6 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 35,7 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 240,9 ming tonna. don (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 83,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming tonna.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 80,4 ming tonna. kartoshka (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko'p) yetishtirildi.Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 90,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 291,1 ming tonna. sabzavotlar (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 79,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz ekinlari

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 94,4 ming tonna. poliz ekinlari (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,6 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 64,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 103,4 ming tonna. meva va rezavorlar (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 65,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 78,9 ming tonna. uzum (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 60,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7 290,8 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,3 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 146,2 ming tonna. go‘sht (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p), 481,6 ming tonna. sut (2,7 % ga ko‘p), 347,1 mln. dona tuxum (3,9 % ga ko‘p), ishlab chiqarildi va 12 103,1 tonna. baliq (0,9 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 164,2 ming tonna. go‘sht (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 91,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Navoiy viloyati bo'yicha go'sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 481,6 ming tonna. sut (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 93,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 347,1 mln. dona tuxum (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 72,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq ovlash












2020- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 12 103,1 tonna. (2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,9 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 89,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 27,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 60,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 12,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 10,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 65,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 24,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 514,7 ming taga yetdi. 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 13,0 ming taga (2,6 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 215,3 ming taga yetdi. 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,4 ming taga (2,1 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 264,2 ming taga yetdi. 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni- 112,8 ming taga (5,2 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**








2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 60,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 19 805 taga yetdi. 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1 027 taga (5,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

### Soni, bosh




### O‘sish sur’ati




### Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 55,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 144,2 ming taga yetdi. 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 112,3 ming taga (3,7 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 65,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Navoiy viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 79- 223-23-40
- 79- 222-04-43